

PAPER

O'QUVCHILARDA PRODUKTIV QOBILYATLARNI SHAKLLANTIRISH (INGILIZ TILI FANI MISOLIDA)

Mustafoyeva Marhabo Nurillayevna ^{1,*}

¹NDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxxasisligi 2-kurs magistranti

* mustafoyeva@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda produktiv qobiliyatlarni (gapirish va yozish) shakllantirishning mazmuni, bosqichlari va samarali metodlari yoritilgan. Produktiv ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilarning erkin fikrlashi, mustaqil ijodiy faoliyati va kommunikativ kompetensiyasi ortadi. Maqolada zamonaviy metodik yondashuvlar, interaktiv uslublar va psixologik omillar asosida samarali yondashuvlar taklif qilingan.

Key words: produktiv qobiliyat, ingliz tili, kommunikativ yondashuv, gapirish ko'nikmasi, yozuv, interaktiv metod, CLT, ijodiy fikrlash.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida eng muhim vazifamiz – bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashdir” [1]. Chet tilini o'rganish – bu nafaqat grammatika va lug'at yodlash, balki mazkur bilimlar asosida mustaqil fikr ifoda eta olish, kommunikativ vazifalarni bajara olishni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan ingliz tili darslarida o'quvchilarning produktiv qobiliyatini shakllantirish muhim hisoblanadi. Psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, produktiv qobiliyatlarni shakllantirish o'quvchining tafakkuri, eslab qolish, nutq, tasavvur va ijodiy yondashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Bunday yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydi, o'quvchining nutqiy faolligini kuchaytiradi va ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Produktiv qobiliyatlarni rivojlantirishda qo'llaniladigan metod va yondashuvlar: Umumta'lim maktablarida ingliz tili fanini o'qitishda o'quvchilarda produktiv qobiliyatlarni shakllantirish uchun o'qituvchi ta'lim jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilishi zarur.

Produktiv til ko'nikmasi nima? Produktiv til ko'nikmalari deganda o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq orqali o'z fikrlarini erkin, mantiqan va muloqotga yo'naltirilgan holda bayon eta olish salohiyati tushuniladi. Bu ko'nikmalar gapirish (speaking) va yozish (writing) faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi [2]. Bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli

Produktiv qobiliyatni shakllantirish quyidagi bosqichlarda

amalgam oshiriladi:

*Tayyorlov bosqichi – so'z boyligini oshirish, grammatik strukturani mustahkamlash.

*Mashq bosqichi – model gaplar va dialoglardan foydalanish orqali mashq bajarish.

*Amaliyot bosqichi – mustaqil fikr bildirish, hikoya qilish, insho yozish.

*Tahlil va baholash – o'quvchining fikr ifodasi mazmuni va uslubini tahlil qilish [3].

*Amaliy metod va texnologiyalar

Quyidagi metod va yondashuvlar o'z samarasini bermoqda:

–CLT (Communicative Language Teaching) – tilni kommunikatsiya vositasi sifatida o'rgatish [4];

–Role-play – ijtimoiy rollar orqali nutqiy faollikni oshirish;

–Storytelling – o'quvchining o'ziga xos hikoya yaratishiga imkon berish;

–Writing prompts – ijodiy yozuv mashqlari orqali erkin fikr ifodasi;

–Think-Pair-Share – kichik guruhlar orqali muhokama olib borish [5].

Bu metodlar o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini orttiradi, faol ishtirokga undaydi va mustahkam natijaga olib keladi. Muammolar va ularni hal etish yo'llari:

Produktiv qobiliyatni shakllantirishda quyidagi muammolar uchraydi:

*Lug'at boyligining yetishmasligi;

- *Grammatikani qo'llashda xatoliklar;
 - *Psixologik to'siq (uyalish, ishonchsizlik);
 - *Og'zaki nutqni mashq qilish imkoniyatining kamligi.
- Bularni bartaraf etish uchun:
- Muloqotga asoslangan topshiriqlar berish;
 - Erkin fikr bildirishga rag'batlantirish;
 - Og'zaki baholash o'rni ijobiy fikrlar bilan ko'maklashish;
 - O'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish lozim

[6]

O'quvchilarda produktiv qobiliyatlarni shakllantirish bo'yicha olib borilgan metodik tajriba va amaliy mashg'ulotlar natijasida quyidagi holatlar kuzatildi:

-O'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi. Erkin suhbatlar, muhokamalar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar darsda faol ishtirok eta boshladilar, bu esa ularning o'z fikrini ifoda etishga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

-Gapirish va yozish ko'nikmalari ancha faollashdi. Avval sust fikr bildirgan yoki tilni qo'llashdan uyalgan o'quvchilar ham asta-sekin nutq faoliyatiga jalb qilindi.

O'quvchilarda produktiv qobiliyatlarni shakllantirish bo'yicha olib borilgan metodik tajriba va amaliy mashg'ulotlar natijasida quyidagi holatlar kuzatildi:

-O'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi. Erkin suhbatlar, muhokamalar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar darsda faol ishtirok eta boshladilar, bu esa ularning o'z fikrini ifoda etishga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

-Gapirish va yozish ko'nikmalari ancha faollashdi. Avval sust fikr bildirgan yoki tilni qo'llashdan uyalgan o'quvchilar ham asta-sekin nutq faoliyatiga jalb qilindi.

-Ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish malakalari rivojlandi.

-Erkin incho, hikoya yozish va debatlar orqali o'quvchilar mavzuni mustaqil o'rganishga, dalil keltirib fikr bildirishga harakat qildilar.

Ingliz tili ta'limida o'quvchilarda produktiv qobiliyatni shakllantirish – ularning mustaqil, ijodiy va kommunikativ salohiyatini ochib beruvchi muhim vositadir. CLT metodikasi, interaktiv usullar va mos psixopedagogik yondashuvlar orqali bu jarayon samarali yo'lga qo'yilishi mumkin. Shuningdek, har bir o'quvchiga individual yondashish, o'ziga ishonchini oshirish orqali ta'lim sifatini sezilarli oshirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021.
2. Халифман Р.З. Формирование продуктивных умений в обучении иностранному языку. – М.: Просвещение, 2017.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson Education, 2015.
5. Ur, P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. – Cambridge University Press, 2012.
6. Абдурахманова Н.М. Замонавий инглиз тили дарсларида фаол ўқитиш методлари. // "Таълимда инновациялар" журнали, 2023, №2.